



O'ZKIMYOSANOAT

AKSIYADORLIK JAMIYATI

2025-yil 10-iyun

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2025-yil 30-iyun kuni o'tkaziladi

“O'ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2025-yil 30-iyun kuni soat 15:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy (“O'zkimyosanoat” AJ ma'muriy binosi)da o'tkaziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2025-yil 30-iyun kuni soat 14:00 da boshlanib, soat 15:00 gacha davom etadi.

KUN TARTIBI:

1. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. “O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining 2024-yil yakunlari bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, shuningdek, jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini ko'rib chiqish.
4. “O'zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashining 2024-yil yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish.
5. 2024-yil yakunlari bo'yicha jamiyatda o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko'rib chiqish.
6. “O'zkimyosanoat” AJning 2024-yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik xulosasini ko'rib chiqish.
7. “O'zkimyosanoat” AJning 2024-yil uchun yillik hisobotini ko'rib chiqish.
8. “O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarining amal qilish muddatini uzaytirish.
9. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bilan tuzilgan shartnomalarga qo'shimcha kelishuvni tasdiqlash.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reestri 2025-yil 10-iyun holatiga hamda umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar reestri 2025-yil 24-iyun holatiga shakllantiriladi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: info@uks.uz

“O'zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashi

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/meeting-20250630>